

UO'K(UDC, УДК): 81-26

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA NOVERBAL VOSITALARNING
KOMMUNIKATIV-SEMIOTIK TABIATI³²**

Kurbanov Muzaffar Abdumutalibovich

Andijon davlat chet tillari instituti professori

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Andijon, O'zbekiston

E-mail: adusifat@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1484-86700

ANNOTATSIYA	KALIT SO'ZLAR
<p>Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda noverbal vositalarning kommunikativ-semiotik tabiati tahlil qilinadi. Noverbal birliklarning muloqot jarayonidagi axborot uzatish, emotsional holatlarni ifodalash hamda kommunikativ munosabatlarni tartibga solishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda noverbal kommunikatsiyaning asosiy shakllari, xususan, kinesika, mimika, okulesika, gaptika, proksemika, xronemika va paralingvistik vositalarning semiotik hamda funksional xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, noverbal belgilar mazmunining kommunikativ vaziyat, madaniy me'yor va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari noverbal vositalarning verbal nutq bilan uzviy bog'langan holda kommunikativ ma'no hosil qilishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi.</p>	<p>Noverbal vositalar, noverbal kommunikatsiya, semiotika, kommunikativ funksiya, kinesika, mimika, paralingvistika, proksemika, lingvomadaniyat.</p> <p>Received: January 25, 2026 Accepted: February 16, 2026 Available online: May 10, 2026</p>

³² **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Kurbanov M. Zamonaviy tilshunoslikda noverbal vositalarning kommunikativ-semiotik tabiati. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 390-403

**THE COMMUNICATIVE AND SEMIOTIC NATURE OF NONVERBAL
MEANS IN MODERN LINGUISTICS****Kurbanov Muzaffar Abdumutalibovich**

Professor of Andijan State Institute of Foreign Languages

Doctor of Philosophy in Philological Sciences

Andijan, Uzbekistan

E-mail: adusifat@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1484-8670

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>This article examines the communicative and semiotic nature of nonverbal means in modern linguistics. It discusses the role of nonverbal units in transmitting information, expressing emotional states, and regulating communicative interaction. The study analyzes the main forms of nonverbal communication, including kinesics, facial expressions, oculusics, haptics, and proxemics, chronemics, and paralinguistic means, emphasizing their semiotic and functional characteristics. Particular attention is paid to the relationship between nonverbal signs, communicative situations, cultural norms, and social factors. The findings demonstrate that nonverbal means function in close interaction with verbal speech and play a significant role in constructing communicative meaning.</p>	<p>Nonverbal means, nonverbal communication, semiotics, communicative function, kinesics, facial expressions, paralinguistics, proxemics, linguoculture.</p>

КОММУНИКАТИВНО-СЕМИОТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Курбанов Музаффар Абдумуталибович
 профессор Андижанского государственного
 института иностранных языков
 доктор философии по филологическим наукам
 Андижан, Узбекистан
 E-mail: adusifat@gmail.com
 ORCID ID: 0000-0003-1484-8670

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В статье рассматривается коммуникативно-семиотическая природа невербальных средств в современной лингвистике. Освещается роль невербальных единиц в передаче информации, выражении эмоциональных состояний и регулировании коммуникативного взаимодействия. Анализируются основные формы невербальной коммуникации, включая кинесику, мимику, окулесику, гаптику, проксемику, хронемиду и паралингвистические средства, а также их семиотические и функциональные особенности. Особое внимание уделяется зависимости значения невербальных знаков от коммуникативной ситуации, культурных норм и социальных факторов. Результаты исследования показывают значимость невербальных средств в процессе формирования коммуникативного смысла в единстве с вербальной речью.</p>	<p>Невербальные средства, невербальная коммуникация, семиотика, коммуникативная функция, кинесика, мимика, паралингвистика, проксемика, лингвокультура.</p>

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda kommunikativ tilshunoslikda muloqot jarayonini o‘rganishda verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal belgilarni ham kompleks tarzda tadqiq etishga bo‘lgan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Insonlararo kommunikatsiya jarayonida mimika, imo-ishora, nigoh, tana harakati, ovoz xususiyatlari, fazoviy masofa, vaqt va boshqa noverbal vositalar axborot uzatish, emotsional holatlarni ifodalash hamda kommunikativ munosabatlarni boshqarishda muhim o‘rin tutadi.

Noverbal kommunikatsiya masalalari paralingvistika, kinesika, proksemika, okulesika va gaptika kabi ilmiy yo‘nalishlar doirasida tadqiq etilgan. G. Trager, R. Birdwhistell, P. Ekman, U. Friesen, M. Knapp, J. Hall, D. McNeill va G. Kreydlinlarning tadqiqotlari ushbu yo‘nalishning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq noverbal vositalarning kommunikativ-semiotik mohiyati, ularning verbal nutq bilan o‘zaro munosabati hamda madaniy va kommunikativ kontekst bilan bog‘liq ma‘no hosil qilish xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, globallashuv va madaniyatlararo muloqot sharoitida noverbal belgilarni to‘g‘ri anglash hamda talqin qilish samarali kommunikatsiyani ta‘minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi noverbal vositalarning kommunikativ-semiotik tabiatini yoritish, ularning asosiy ko‘rinishlari va funksional xususiyatlarini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi noverbal vositalarning semiotik mohiyati va kommunikativ imkoniyatlarini zamonaviy kommunikativ tilshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks yondashuv asosida tadqiq etish bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda noverbal vositalarning kommunikativ-semiotik xususiyatlarini yoritishda tavsifiy, funksional, semiotik hamda lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida noverbal kommunikatsiyaga oid ilmiy manbalar o‘rganilib, turli nazariy yondashuvlar qiyosiy va tizimli tahlil asosida umumlashtirildi. Shuningdek, noverbal belgilar mazmunining kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabat va madaniy kontekst bilan bog‘liqligi hamda ularning verbal vositalar bilan o‘zaro munosabati kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

XX asrning 70-yillarida noverbal muloqot masalasi nafaqat ilmiy doiralarda, balki keng jamoatchilik orasida ham alohida qiziqish uyg‘ota boshlagan. Shu davrdan e‘tiboran “tana tili”ga bag‘ishlangan ommabop adabiyotlar shakllanib, insonning yuz ifodasi, imo-ishorasi, gavda holati va ovoz ohangi muloqot jarayonida

muhim axborot tashuvchi vositalar ekanligi keng targ'ib etila boshlandi. Biroq, ayni holat ayrim nazariy qarashlarni haddan tashqari soddalashtirish, alohida olingan imo-ishorani har qanday vaziyatda bir xil ma'no anglatuvchi qat'iy belgi sifatida izohlash xavfini ham yuzaga keltirdi.

Ilmiy yondashuv esa noverbal belgini bunday biryoqlama talqin qilishni ma'qul ko'rmaydi. Zero, har qanday noverbal vositaning mazmuni birgina tashqi harakatlar majmui emas, balki kommunikativ niyat, ijtimoiy munosabat, madaniy me'yor va muloqot sharoiti bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladigan murakkab semiotik hodisadir. Bizningcha, masala tahlilida har bir belgini yaxlit kommunikativ vaziyat doirasida baholash maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy tilshunoslikda, shu jumladan oxirgi o'n yillikda nashr qilingan ilmiy adabiyotlarda "tana tili", "noverbal muloqot", "paralingvistika" va "kinesika" terminlarining ayrim hollarda bir-biriga yaqin yoki sinonim birliklar sifatida qo'llanishi ularning mazmuniy chegarasi hamda tadqiqot predmetini aniq belgilashda muayyan chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Holbuki, bu tushunchalar o'zaro aloqador bo'lsa-da, ilmiy jihatdan bir xil hodisani anglatmaydi. Keng ma'noda noverbal kommunikatsiya og'zaki nutqning leksik-grammatik tizimidan tashqarida amal qiluvchi belgi vositalarini qamrab oladi. Unga tana harakatlari, yuz ifodalari, imo-ishoralar, ovoz ohangi, intonatsiya, pauza, muloqot masofasi, vaqtga munosabat, tashqi ko'rinish, kiyinish, taktil aloqa kabi turli kommunikativ belgilar kiradi. Demak, noverbal vosita mazkur umumiy tizim tarkibida muayyan shakl, mazmun va kommunikativ vazifaga ega bo'lgan alohida belgi birligi sifatida qaralishi kerak.

Terminologik tizimning shakllanishida G.Tragerning o'rni alohida. U 1958-yilda "paralingvistika" terminini ilmiy muomalaga kiritib, nutqqa yondosh ovoz xususiyatlari – ovoz tembri, sur'ati va intensivligi va pazvani mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida ajratdi (Trager G.L., 1958, 1-12). Keyingi izlanishlarda ushbu tushunchaning nazariy qamrovi kengayib, ovozga oid belgilar bilan bir qatorda tana harakatlari, fazoviy munosabatlar hamda boshqa noverbal vositalar ham kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy birliklari sifatida ilmiy tahlilga tortildi.

Sohaning ichki tarmoqlanishi masalasida G.Kreydlin ilgari surgan tasnif zalvorli: u noverbal muloqotni ifodalovchi vositalarni bir necha yo'nalish doirasida turkumlarga ajratadi, ya'ni paralingvistika ovoz kodlarini, kinesika imo-ishora va tana harakatlarini, okulesika ko'z harakatlarini, gaptika yoki takesika teginish orqali yuzaga chiqadigan aloqani, proksemika muloqot fazosini, xronemika muloqot vaqtini, gastika ovqat va ichimliklarning belgi vazifasini, olfaksiya hidning kommunikativ rolini, sistemologiya predmetlarning muloqotdagi funksiyasini, auskultatsiya esa eshitish orqali qabul qilinadigan noverbal belgilarni o'rganadi. Mazkur yo'nalishlarni birlashtirib turuvchi asosiy jihat ularning semiotik tabiatida

namoyon bo'ladi: har qanday vosita qaysi sezgi kanali orqali qabul qilinishidan qat'iy nazar, idrok etiladigan shakl bilan kommunikativ mazmun o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Shu jihatdan ular alohida-alohida hodisalar yig'indisi emas, balki yaxlit belgi tizimining o'zaro tutash qismlari sifatida talqin etiladi. M.Knapp va J.Holl ham inson xulq-atvori bilan og'zaki nutqning uzviy aloqasiga alohida e'tibor qaratib, kommunikativ mazmun aynan ikki tizimning o'zaro ta'siri jarayonida shakllanishini qayd etadilar. Binobarin, ularni bir-biridan ajratgan holda tahlil qilish muloqot mexanizmlarining ichki mohiyatini to'liq ochib berishga imkon bermaydi (Knapp M.L., Hall J.A., Horgan T.G., 2014).

R.Birdvistel tana harakatlarini til bilan qiyoslar ekan, ular tarkibida fonemaga monand eng kichik farqlovchi birlik – kinema, morfemaga monand ma'noli birlik – kinemorfa mavjud bo'lishi mumkinligini ilgari suradi (Birdwhistell R.L., 99-110). Tadqiqot obyekti chegarasini belgilashda noverbal kommunikatsiyani imo-ishora tillari bilan aynanlashtirmaslik lozim. Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar foydalanadigan imo-ishora tillari o'z grammatikasi, lug'aviy tarkibi hamda sintaktik qurilishiga ega to'laqonli lisoniy tizimlardir; ularning og'zaki tildan farqi tovush kanali o'rnida vizual-harakat kanali orqali voqelanishidir. Noverbal vositalar esa og'zaki yoki imoviy tilning leksik-grammatik tizimiga kirmaydigan, kommunikativ mazmunni to'ldiruvchi, aniqlashtiruvchi yoxud unga qo'shimcha ma'no yuklovchi belgilar majmuasini tashkil etadi. Bu farq tadqiqot predmetini aniq belgilash hamda turli kommunikativ hodisalarni bir-biriga qorishtirib yubormaslik uchun zarur, bizningcha.

D.McNeill imo-ishora va nutq yagona psixolingvistik tizimni tashkil etishini, bir paytda yuzaga kelib, ko'pincha bir mazmunni turli semiotik usullar orqali ifodalashini ta'kidlar ekan, imo-ishoralarni ma'no hosil qilish mexanizmi va kommunikativ vazifasiga ko'ra ikonik, metaforik, ritmik va deyktik turlarga ajratadi. Uning talqinida qo'l harakatlari nutqda to'liq verbal shakl olmagan tasavvur va obrazlarni tashqi ifodaga planiga chiqarib, fikrning mazmuniy qirralarini ochadi. Jestlar so'z bilan berilgan mazmunni shunchaki takrorlamaydi; uni to'ldiradi, aniqlashtiradi yoki vizual shaklda voqelantiradi (McNeill D., 1992); tafakkur jarayonida ham faol qatnashuvchi kognitiv-kommunikativ mexanizm sifatida baholanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy kommunikativ tilshunoslikda noverbal hodisaning kommunikativ birlik sifatidagi maqomi uning axborot qiymati, adresat tomonidan talqin qilinishi va muloqotdagi vazifasini e'tiborga olish orqali baholanadi. Olingan axborotga inson yuzining qizarishi dastlab fiziologik reaksiya tarzida yuzaga chiqishi mumkin; biroq suhbat kontekstida u uyalish, noqulaylik, e'tiroz yoxud hayajon kabi emotsionallikni ifodalash belgisi sifatida kommunikativ mazmun kasb etadi; yoki

suhbat davomida koʻz nigohini olib qochish bir vaziyatda ehtirom yoki hayo ifodasi sifatida anglashilsa, boshqa bir sharoitda ishonchsizlik, ichki tortinish yoki munosabatdan chekinish alomati tarzida talqin qilinishi ehtimoldan xoli emas.

Baʼzan noverbal vositalar verbal birliklar oʻrnini bosib, ogʻzaki javobsiz ham mustaqil maʼno anglatadi: chunonchi, boshning tasdiq yoki inkorni bildiruvchi harakati, qoʻl ishoralari hamda boshqa emblematik belgilar suhbatdoshga zarur axborotni soʻzsiz yetkazadi. Buning barobarida koʻz aloqasi, bosh harakati, yuz ifodasi va pauzalar suhbat oqimini tartibga solish, nutqiy navbat almashinuvini boshqarish hamda kommunikativ hamkorlikni bir maromda tutib turishda boshqaruv hal qiluvchi vazifa bajaradi (Duncan S., 1972, 283-292).

Belgi mohiyatini aniqlashda kommunikativ va simptomatik harakatlar oʻrtasidagi tafovutni ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim. G.Kreydlin muayyan kommunikativ niyat bilan ongli ravishda qoʻllanib, belgi vazifasini bajaruvchi harakatlarni shaxsning ichki holatini beixtiyor aks ettiruvchi simptomatik reaksiyalardan farqlaydi. Kommunikativ harakat axborot uzatishga yoʻnaltirilgan semiotik birlik sifatida voqelanadi; simptomatik harakat esa maxsus kommunikativ niyatsiz yuzaga chiqib, insonning ruhiy yoxud jismoniy holatidan darak beruvchi koʻrsatkich tarzida talqin qilinadi (Крейдлин Г.Е., 22-27). Masalan, salomlashish ishorasi toʻla maʼnoda kommunikativ belgi boʻlsa, hayajondan terlash kuzatuvchi uchun axborot manbai boʻlishiga qaramay, ataylab yoʻnaltirilgan belgi emas.

Noverbal xatti-harakatning toʻla nazoratga boʻysunmasligi uning diagnostik salohiyatini kuchaytiradi: shaxs ogʻzaki nutqini ongli ravishda boshqara olgan taqdirda ham, yuz ifodasi, nigoh yoxud gavda harakatlarining ayrim unsurlari pinhon tutilayotgan hissiy holatni beixtiyor fosh etishi mumkin, chunki tana aʼzolari bir xil koʻlamda idora qilinmaydi va nazorat darajasi sust boʻlgan belgilar ichki kechinma haqida nisbatan ishonchliroq axborot beradi (Ekman P., Friesen W.V., 1969, 88-106). Verbal va noverbal signallar oʻrtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganda suhbatdoshlar koʻproq yuz ifodasi, nigoh va tana harakatlariga tayanishga moyil boʻlishi shuning bilan izohlanadi.

Noverbal vositalarning kommunikativ mohiyati semiotik belgiga egalik, ijtimoiylik va kontekstuallik mushtarakligida ochiladi. Semiotik belgiga egalik moddiy shaklning maʼno bilan tutashishini bildirsa, ijtimoiylik ushbu tutashuvning muayyan jamoa tajribasida mustahkamlanishini anglatadi; kontekstuallik esa har bir noverbal signalning vaziyat, maqom, munosabat va madaniy kodga qarab turlicha oʻqilishini koʻrsatadi. Chunonchi, qoʻl siqish shaklan oddiy gaptik harakat boʻlib koʻrinsa-da, ishbilarmonlik muhitida hamkorlik, kelishuv va rasmiy tanishuv belgisi sifatida qabul qilinadi; yaqin qarindoshlar davrasida esa uning oʻrnini quchoqlash, yuzdan oʻpish yoki boshqa samimiy salomlashuv shakllari egallashi mumkin. Ayni

jihatdan qaralganda, tana harakati sof fiziologik amal doirasida qolmay, ijtimoiy ramz maqomiga ko'tariladi.

Noverbal belgining shakl va mazmun birligi turli sezgi kanallarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Kinesik kanal doirasida qo'l, bosh va gavda harakatlari fazoviy-dinamik belgi sifatida faoliyat ko'rsatadi; harakatning yo'nalishi, amplitudasi va sur'ati kommunikativ mazmuni belgilaydi. Yurish uslubi, qomatni tutish va o'tirish pozitsiyasi ham shaxsning hissiy holati, o'zini tutish strategiyasi va ijtimoiy mavqei haqida axborot beruvchi kinesik belgilar sirasiga kiradi.

Mimik kanalda kommunikativ mazmun yuz mushaklari harakati orqali zohir bo'lib, aksar hollarda emotsional holatlarning tashqi belgisi sifatida indeksal xususiyat kasb etadi; biroq bu ifodalarning qachon, qay darajada va qanday shaklda namoyon bo'lishi madaniy me'yorlar, muomala odobi hamda vaziyat talabi bilan tartibga solinadi. Yuz harakatlarini imkon qadar aniq va obyektiv tavsiflash maqsadida P.Ekman hamda U. Frizen mimik reaksiyalarni eng kichik funksional birliklarga ajratishga asoslangan maxsus kodlash tizimini ishlab chiqqanlar. Ushbu tizim yuz ifodalarini subyektiv kuzatuv va intuitiv talqindan obyektiv tahlil darajasiga olib chiqib, mimik harakatlarning ham ichki tizimga ega, tavsiflanadigan va tasniflanadigan birliklardan tashkil topishini ilmiy jihatdan asoslab berishga qaratilgan edi.

Okulesik kanalda nigoh muloqotning muhim semiotik komponentlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Nigohning davomiyligi, yo'nalishi, intensivligi hamda uning uzilish chastotasi kommunikantlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, psixologik yaqinlik va status nisbatlari haqida axborot uzatadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ko'z aloqasi suhbatni tashkillashtirish, nutqiy navbat almashinuvini muvofiqlashtirish, e'tibor va qiziqishni namoyish etish, shuningdek, muloqot ishtirokchilarining o'zaro pozitsiyalarini belgilashda muhim regulyativ vazifani bajaradi (Ekman P., Friesen W.V., 1978, 88-106).

Gaptik kanalda taktil teginish noverbal ma'no hosil qiluvchi mustaqil belgi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Qo'l berish, quchoqlashish, yelkaga qoqish yoki qo'l tekkizish kabi harakatlar yaqinlik, qo'llab-quvvatlash, hamdardlik, ishonch yoki ijtimoiy ustunlikni ifodalashi mumkin. Biroq teginishning qo'llanish chastotasi, ruxsat etilgan shakllari va kommunikativ vazifalari turli madaniyatlarda sezilarli darajada farqlanadi hamda ijtimoiy me'yorlar tomonidan tartibga solinadi (Hall E.T., 1966, 76). Gaptik xulqning funksional tasnifida teginishning bir necha asosiy turlari ajratiladi: professional teginish, ijtimoiy teginish, do'stona teginish hamda emotsional yaqinlik va mehr-muhabbatni ifodalovchi affektiv teginish. Ushbu shakllarning har biri kommunikativ vaziyat, ishtirokchilarning o'zaro maqomi va munosabatlar xarakteriga qarab turlicha pragmatik yuklama kasb etadi (Jones S.E., Yarbrough A.E., 1985, 19-56).

Proksemik kanal muloqot ahli o'rtasidagi fazoviy oraliq va joylashuv tartibini ma'no anglatuvchi belgi sifatida talqin etadi. E.Hall kommunikativ makonni qat'iy, turg'un bo'lmagan va norasmiy turlariga ajratadi; shaxslararo muomalada esa intim, shaxsiy, ijtimoiy va ommaviy masofa hududlarini farqlaydi. Zotan, muloqotda masofa oddiy jismoniy oraliq emas, balki suhbatdoshlar o'rtasidagi yaqinlik, hurmat, rasmiylik yoki begonalik darajasini bildiruvchi nozik ishoradir (Hall E.T., 1966, 108-129).

Xronemik kanalda vaqt kommunikativ axborot tashuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Kechikish, kutish davomiyligi, pauzalar, nutq sur'ati va muloqotning umumiy temporal xossalari suhbatdoshlarning o'zaro munosabati, maqomi hamda kommunikativ niyatlari haqida ma'lumot beradi. Vaqtga qat'iy rioya qilish yoki unga nisbatan erkin munosabat madaniy me'yorlar bilan belgilanadigan ijtimoiy-signifikativ xabarni ifodalaydi (Hall E.T., 1959, 18-36).

Paralingvistik kanalda ovozning balandligi, tembri, ohangi, ritmi va sukut verbal mazmunning pragmatik talqiniga ta'sir ko'rsatuvchi qo'shimcha semantik parda tortadi. G.Trager paralingvistik birliklarni ovoz sifatleri, modifikatorlari va ovozli reaksiyalar guruhlariga ajratgan: ayni bir lisoniy birlik turli intonatsion qiyofada turlicha munosabat, ruhiy kayfiyat va kommunikativ ma'noni zohir etishi mumkin (Trager G.L., 1958, 1-12).

Tashqi qiyofa, libos va moddiy atributlar ham kommunikativ ma'no yuklaydi: ular shaxsning ijtimoiy mavqei, muayyan guruhga mansubligi hamda o'zini muloqot maydonida qanday taqdim etish usulini zohir qiladi. Binobarin, mazkur kanallar yakka-yakka holda emas, balki o'zaro tutash va bir-birini to'ldirgan tarzda amal qilib, muloqotning yaxlit semiotik maydonini vujudga keltiradi (Knapp M.L., Hall J.A., Horgan T.G., 2014, 17-23).

Sukut noverbal kommunikatsiyaning mustaqil semiotik birligi bo'lib, muayyan kommunikativ vaziyatda ma'no yuklangan pragmatik ishoradir. Kontekstga qarab sukut hurmat, rozilik, norozilik, mulohaza, ikkilanish, emotsional nazorat yoki ijtimoiy masofani ifodalashi mumkin (Jaworski A., 1993, 23-41). Sukutning kommunikativ talqini madaniy me'yorlar bilan bevosita tutashadi. Bir madaniy muhitda u noqulaylik, muloqot rishtasining uzilishi yoxud pinhoni qarshilik belgisi tarzida qabul qilinsa, boshqa bir muhitda vazminlik, donolik, ehtirom va o'zini tuta bilish ifodasi sifatida baholanadi, ya'ni sukutning semantik hamda pragmatik qiymati uning qaysi vaziyatda yuzaga kelgani, suhbatdoshlar munosabati va madaniy kontekst bilan belgilanadi (Nakane I., 2007, 15-23).

Noverbal vositalar kommunikativ jarayonda verbal nutqdan mustaqil ravishda emas, balki u bilan uzviy bog'langan holda faoliyat ko'rsatadi. Ular nutqiy mazmuni to'ldirishi, aniqlashtirishi, kuchaytirishi yoki ayrim hollarda verbal

axborotga zid ma'no hosil qilishi mumkin (Knapp M.L., Hall J.A., Horgan T.G., 2014, 17-23).

P.Ekman va U.Frizen noverbal xatti-harakat vazifaviy tasnifini besh asosiy turkum doirasida sharhlaydilar: emblemalar – muayyan lisoniy ekvivalentga ega, soʻz bilan ham ifodalanishi mumkin boʻlgan shartli imo-ishoralardir; illyustratorlar nutq mazmunini koʻrgazmali tarzda quvvatlovchi tana harakatlari sifatida namoyon boʻladi; affekt belgilari emotsional holatning yuz, nigoh va tana orqali zohir boʻlishini bildiradi; regulyatorlar muloqot oqimini, nutqiy navbat almashinuvini hamda suhbat surʼatini boshqaruvchi signallar sirasiga kiradi; adaptorlar yoki manipulyatorlar esa koʻpincha anglanmagan holda yuzaga chiqib, shaxsning ichki ruhiy holati bilan bogʻliq harakatlarni ifodalaydi (Knapp M.L., Hall J.A., Horgan T.G., 2014, 17-23).

Muxtasar aytganda, verbal va noverbal vositalar kommunikativ jarayonda bir-biridan ayri holda emas, balki oʻzaro tutashgan semiotik tizim sifatida amal qilib, ma'no hosil qilishning yagona mexanizmini yuzaga keltiradi. Ular oʻrtasidagi munosabat turli vazifaviy koʻrinishlarda zohir boʻladi: noverbal signal gohida verbal mazmunni takrorlaydi, chunonchi, muayyan yoʻnalish avval qoʻl harakati bilan koʻrsatilib, ayni ma'no nutqda ham ifodalanadi; gohida esa u verbal axborotni toʻldiradi, aniqlashtiradi yoxud ayrim mazmun boʻlaklarini alohida urgʻulab, kommunikativ taʼsir kuchini oshiradi (Knapp M.L., Hall J.A., Horgan T.G., 2014, 17-23).

Noverbal sathning kommunikativ salohiyati, avvalo, uning koʻp kanalli tabiati va sinxronlik xususiyatida koʻzga tashlanadi. Ogʻzaki nutq esa linear: tovush va soʻzlar ketma-ketlik asosida uzatilsa, noverbal signallar yuz ifodasi, qoʻl harakati, ovoz ohangi hamda fazoviy holat singari bir necha kanal orqali ayni bir paytda zohir boʻladi. Ravshanki, bu xususiyat emotsiya va munosabatni tezkor, jamlangan hamda koʻp sathli shaklda ifodalashga imkon yaratadi (Poyatos F., 2002). Yuz ifodasi, intonatsiya, fazoviy oraliq va tana harakatlari bir paytning oʻzida idrok maydoniga kirar ekan, suhbatdosh ongida muloqot vaziyatining yaxlit kommunikativ qiyofasini hosil qiladi; ayni qiyofa verbal axborotdan ilgariroq anglanib, muloqot ishtirokchisi haqidagi dastlabki baho, ishonch darajasi hamda munosabat yoʻnalishining shakllanishida tayanch semiotik omil sifatida maydonga chiqadi.

Masalaning shakllanish manbalari yagona tabiat bilan cheklanmaydi. P.Ekman va U.Frizen ularning kelib chiqishini uch asosda izohlaydilar: biologik zaminga ega boʻlib, tugʻma tarzda zohir boʻladigan signallar; madaniy muhitda oʻzlashtirilib, jamoaviy muomala meʼyorlari bilan mustahkamlanadigan belgilar; shuningdek, individual tajriba, odat va shaxsiy xulq-atvor tarzidan tarkib topadigan birliklar. Aytish mumkinki, noverbal kommunikatsiya tarkibida universal,

lingvomadaniy hamda individual komponentlar yonma-yon emas, balki o'zaro tutash holda amal qiladi.

Biologik asosli belgilar, avvalo, asosiy emotsiyalarning yuzdagi ifodasi bilan bog'lanadi; ularning salmoqli qismi turli madaniyatlarda yaqin shaklda namoyon bo'lsa-da, ifodalanish darajasi va vaziyatga mos qo'llanishi madaniy nazoratdan xoli emas. Madaniy xoslangan noverbal vositalar muayyan etnomadaniy hamjamiyatga xos muomala odobi, ijtimoiy me'yor va an'anaviy ishora tizimlarini aks ettiradi. Individual belgilar esa shaxsning ruhiy qiyofasi, hayotiy tajribasi, odatiy xulq-atvori va muloqot uslubiga tutashgan holda voqelanadi (Ekman P., Friesen W.V., 1969, 49-98). Noverbal vositalarni o'zlashtirish kommunikativ malakaning ajralmas tarkibiy halqasi sanaladi. D.Haymz ilgari surgan kommunikativ malaka konsepsiyasida til kompetensiyasi grammatik qoidalarni bilish doirasi bilan chegaralanmaydi; aksincha, lisoniy hamda nolisoniy vositalarni muloqot vaziyati, suhbatdosh maqomi, ijtimoiy rol va madaniy me'yorlarga muvofiq qo'llay olish salohiyatini ham qamrab oladi. Demak, noverbal kodlarni to'g'ri idrok etish, ularning vaziyatga bog'liq ma'nosini fahmlash va o'rinli qo'llash muloqotning izchil, tabiiy hamda madaniy jihatdan maqbul kechishini ta'minlovchi shartlar sirasiga kiradi (Hymes D., 1972, 269-293).

Kommunikativ malakaning muhim komponentlaridan biri noverbal me'yorlarni o'zlashtirishdan iborat. Bunga sukutning o'rinli qo'llanishi, fazoviy masofani saqlash hamda muayyan kommunikativ vaziyatga mos imo-ishoralardan foydalanish kabi ko'nikmalar kiradi. Chet tilini o'rganuvchi shaxs grammatik va leksik vositalarni mukammal egallagan taqdirda ham, mazkur til jamoasiga xos noverbal kodlarni bilmasa, kommunikativ nomuvofiqlik yoki pragmatik muvaffaqiyatsizlikka duch kelishi mumkin (Thomas J., 1983, 91-112). Ayrim hollarda verbal va noverbal sathlar o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelib, tana harakati, mimika yoki intonatsiya orqali uzatilayotgan mazmun og'zaki bayon bilan zid kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda noverbal signallar ishonchliroq axborot manbai sifatida qabul qilinadi (Mehravian A., 1972, 75-89). Shu bois noverbal vositalarni talqin qilishda kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabat hamda lingvomadaniy omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, noverbal vositalar insonlararo kommunikatsiyaning ajralmas semiotik tarkibiy qismi bo'lib, axborot uzatish, emotsional holatlarni ifodalash, kommunikativ munosabatlarni tartibga solish hamda muloqot mazmunini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular verbal nutq bilan uzviy bog'langan holda yagona kommunikativ tizimni tashkil qiladi. Tadqiqot natijalari noverbal belgilar mazmuni ularning tashqi ko'rinishi bilan emas, balki kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabatlar, madaniy me'yorlar va lingvomadaniy

omillar bilan belgilanadi. Shu bois bir xil noverbal signal turli muloqot sharoitlarida turlicha semantik va pragmatik mazmun kasb etishi mumkinligi aniqlandi.

Shuningdek, noverbal kommunikatsiyaning ko'p kanalli tabiati uning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, kinesik, mimik, okulesik, gaptik, proksemik, xronemik va paralingvistik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Noverbal belgilarni to'g'ri talqin qilish muloqot samaradorligini ta'minlash, kommunikativ niyatni anglash hamda madaniyatlararo aloqalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kommunikativ to'siqlarning oldini olishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Duncan S. Some Signals and Rules for Taking Speaking Turns in Conversations // *Journal of Personality and Social Psychology*. –1972. –Vol. 23. –No. 2. – P. 283–292.
2. Trager G.L. Paralanguage: A First Approximation // *Studies in Linguistics*. – 1958. – Vol. 13. – P. 1–12.
3. Knapp M.L., Hall J.A., Horgan T.G. *Nonverbal Communication in Human Interaction*. – Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2014.
4. Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2002. – 592 с.
5. Birdwhistell R.L. Ko'rsatilgan asar. – P. 99–110.
6. McNeill D. *Hand and Mind: What Gestures Reveal about Thought*. – Chicago: University of Chicago Press, 1992.
7. Ekman P., Friesen W.V. Nonverbal Leakage and Clues to Deception // *Psychiatry*. – 1969. – Vol. 32, № 1. – P. 88–106.
8. Ekman P., Friesen W.V. *Facial Action Coding System: A Technique for the Measurement of Facial Movement*. – Palo Alto: Consulting Psychologists Press, 1978.
9. Ekman P., Friesen W. V. The Repertoire of Nonverbal Behavior: Categories, Origins, Usage, and Coding // *Semiotica*. –1969. –Vol. 1. –No. 1. – P. 49–98.
10. Hymes D. On Communicative Competence // *Sociolinguistics: Selected Readings* / ed. by J.B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
11. Thomas J. Cross-Cultural Pragmatic Failure // *Applied Linguistics*. –1983. – Vol. 4. –No. 2. – P. 91–112.
12. Mehrabian A. *Nonverbal Communication*. –Chicago: Aldine-Atherton, 1972. – P. 75–89.
13. Knapp M. L., Hall J. A., Horgan T. G. *Nonverbal Communication in Human Interaction*. –8th ed. –Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2014. – P. 17–23.

14. Poyatos F. *Nonverbal Communication across Disciplines*. Vol. 1: Culture, Sensory Interaction, Speech, Conversation. – Amsterdam – Philadelphia: John Benjamins, 2002.
15. Hall E. T. *The Hidden Dimension*. – New York: Doubleday & Company, 1966. – P. 108–129.
16. Hall E. T. *The Silent Language*. – New York: Doubleday & Company, 1959. – P. 18–36.
17. Trager G. L. *Paralanguage: A First Approximation // Studies in Linguistics*. – 1958. – Vol. 13. – No. 1. – P. 1–12.
18. Knapp M. L., Hall J. A., Horgan T. G. *Nonverbal Communication in Human Interaction*. – 8th ed. – Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2014. – P. 81–104.
19. Jaworski A. *The Power of Silence: Social and Pragmatic Perspectives*. – Newbury Park: Sage Publications, 1993. – P. 23–41.
20. Nakane I. *Silence in Intercultural Communication: Perceptions and Performance*. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2007. – P. 15–32.
21. Knapp M. L., Hall J. A., Horgan T. G. *Nonverbal Communication in Human Interaction*. – 8th ed. – Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2014. – P. 10–15.
22. Knapp M. L., Hall J. A., Horgan T. G. *Nonverbal Communication in Human Interaction*. – 8th ed. – Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2014. – P. 17–23.

REFERENCES

1. Birdwhistell, R. L. (1970). *Kinesics and context: Essays on body motion communication* (pp. 99–110). Philadelphia, PA: University of Pennsylvania Press.
2. Duncan, S. (1972). Some signals and rules for taking speaking turns in conversations. *Journal of Personality and Social Psychology*, 23(2), 283–292.
3. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). Nonverbal leakage and clues to deception. *Psychiatry*, 32(1), 88–106.
4. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). The repertoire of nonverbal behavior: Categories, origins, usage, and coding. *Semiotica*, 1(1), 49–98.
5. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1978). *Facial action coding system: A technique for the measurement of facial movement*. Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press.
6. Hall, E. T. (1959). *The silent language* (pp. 18–36). New York, NY: Doubleday & Company.

7. Hall, E. T. (1966). *The hidden dimension* (pp. 108–129). New York, NY: Doubleday & Company.
8. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected Readings* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.
9. Jaworski, A. (1993). *The power of silence: Social and pragmatic perspectives* (pp. 23–41). Newbury Park, CA: Sage Publications.
10. Knapp, M. L., Hall, J. A., & Horgan, T. G. (2014). *Nonverbal communication in human interaction* (8th ed.). Boston, MA: Wadsworth Cengage Learning.
11. Knapp, M. L., Hall, J. A., & Horgan, T. G. (2014). *Nonverbal communication in human interaction* (8th ed., pp. 17–23). Boston, MA: Wadsworth Cengage Learning.
12. Knapp, M. L., Hall, J. A., & Horgan, T. G. (2014). *Nonverbal communication in human interaction* (8th ed., pp. 81–104). Boston, MA: Wadsworth Cengage Learning.
13. Knapp, M. L., Hall, J. A., & Horgan, T. G. (2014). *Nonverbal communication in human interaction* (8th ed., pp. 10–15). Boston, MA: Wadsworth Cengage Learning.
14. Knapp, M. L., Hall, J. A., & Horgan, T. G. (2014). *Nonverbal communication in human interaction* (8th ed., pp. 17–23). Boston, MA: Wadsworth Cengage Learning.
15. Kreidlin, G. E. (2002). *Nonverbal semiotics: Body language and natural language*. Moscow: Novoe Literaturnoe Obozrenie.
16. McNeill, D. (1992). *Hand and mind: What gestures reveal about thought*. Chicago, IL: University of Chicago Press.
17. Mehrabian, A. (1972). *Nonverbal communication* (pp. 75–89). Chicago, IL: Aldine-Atherton.
18. Nakane, I. (2007). *Silence in intercultural communication: Perceptions and performance* (pp. 15–32). Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
19. Poyatos, F. (2002). *Nonverbal communication across disciplines*. Vol. 1: Culture, sensory interaction, speech, conversation. Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins.
20. Thomas, J. (1983). Cross-cultural pragmatic failure. *Applied Linguistics*, 4(2), 91–112.
21. Trager, G. L. (1958). Paralanguage: A first approximation. *Studies in Linguistics*, 13(1), 1–12.
22. Trager, G. L. (1958). Paralanguage: A first approximation. *Studies in Linguistics*, 13(1), 1–12.